

**Aburaxmonov Alimardon Abdusalomovich  
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

---

## **EKOLOGIK MAS’ULIYATNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA FALSAFIY-KONSEPTUAL ASOSLARI**

**Annotatsiya:** Ekologik ehtiyojlarning xususiyatlari va ularni qondirishning ijtimoiy-siyosiy, texnik-texnologik asoslari ekologik mas’uliyatdagi shaxs erkinligining xarakterini belgilab turadi. Bizning tadqiqotimiz doirasida erkinlik-ekologik zaruriyatni inson tomonidan anglash jarayoni bo‘lib, tabiatni muhofaza qilish manfaatlari asosida biosfera ekologik muvozanati qonunlarini bilish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishidir.

**Tayanch so‘zlar:** Ona tabiatga mehr-muhabbat, planetada iqlim o‘zgarishi, ekologik xavf, ekologik inqiroz, ekologik halokat.

---

Bugungi kunda ekologik muammolarning umumbashariy miqyosda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ziddiyatlarni keltirib chiqarayotganligi ekologik mas’uliyatni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Tabiat va inson munosabatlarining dialektik aloqadorligi, tabiatni muhofaza qilish sohasida, insoning ijtimoiy-siyosiy mas’uliyatini yangi sifat darajaga olib chiqishni talab etmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy-ekologik muammolar yechimida zamонавиy innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda aholining tabiatdan foydalanish an’analariга asoslangan ekologik mas’uliyatini rivojlantirishning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda barqaror ekologik vaziyatni, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim subyektiv omili bo‘lgan ekologik ong va madaniyatni yanada yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. ....bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin». Buning asosiy yechimlaridan biri esa jamiyatda ekologik ma’suliyatni shakllantirishdir.

O‘zbekistonda barqaror ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlashda mavjud tabiiy resurslardan ilmiy asosda foydalanish, har bir hududning tabiiy sharoitiga hamda shakllangan an’analariга mos keladigan va ularning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga sharoit yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini oqilona boshqarish muhim strategik ahamiyat kssb etadi. Zero, «O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»da «atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, aholining tabiatdan foydalanish tajribalari asosida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy-ekologik muammolarni oldini olishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik mas’uliyat: “ekologik xavf”, “ekologik inqiroz”, “ekologik halokat” tushunchalarining mazmuniga mos tarzda o‘z xarakterini hamda yo‘nalishini belgilab oladi. Bu tushunchalar ekologik vaziyatning konkretlashgan darajalarini nisbatan mutanosib aks ettirib, ziddiyatlarning muayyan sifat, mikdor munosabatlarini o‘ziga xos mezonlarda namoyon qiladi. Shuningdek, bu tushunchalarning mazmuni dialektik-dinamik harakterga ega bo‘lganligi uchun o‘z o‘rinlarini va ahamiyatini o‘zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, ularning mazmunini jamiyatning konkret ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, geografik, demografik, etnografik xususiyatlardan ajratib tushuntirish mumkin emas. Xususan, ekologik inqiroz tabiat va inson munosabatlarining hamma tomonlarini qamrab olishi bilan universal xarakter kasb etadi. Bu majmua munosabatlar markazida inson

ehtiyojlari va manfaatlari yotishini nazarda tutadigan bo‘lsak, “ekologik inqiroz, mohiyatiga ko‘ra, insoniylik inqirozidir”. Shuning uchun ham, insonni qurshagan tabiiy muhit, ya’ni borliqda uning biologik tur sifatida o‘rin olganligi va inson faoliyatini anglatadi. Planetada iqlim o‘zgarishi, arktikada muzliklarning erishi natijasi XXI asr dunyodagi okeanlarda suv sathining 44 sm ko‘tarilishiga olib keladi va bunday ekologik tanglik 140 mln. kishining kundalik turmishiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Keyingi 50 yil davomida jahonda 3 mln km dengiz muzi yo‘q bo‘lib ketgan. Mana shunday globa ekologik inqiroz bo‘sag‘asida global ekologik mas’uliyatl ongni shakllantirish ustuvor ijtimoiy vazifalardandir.

Ekologik ehtiyojlarning xususiyatlari va ularni qondirishning ijtimoiy-siyosiy, texnik-texnologik asoslari ekologik mas’uliyatdagi shaxs erkinligining xarakterini belgilab turadi. Bizning tadqiqotimiz doirasida erkinlik-ekologik zaruriyatni inson tomonidan anglash jarayoni bo‘lib, tabiatni muhofaza qilish manfaatlari asosida biosfera ekologik muvozanati qonunlarini bilish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishidir.

Shuni ham aytish kerakki, ekologik mas’uliyatni ekologik burch kategoriyasi bilan aralashtirish, ularning definitsiyasidagi noaniqpiklarga olib keladi. Yani, ekologik mas’uliyat va ekologik burch kategoriyalari mazmunan o‘zaro uzviy aloqador bo‘lsa ham, ularning o‘ziga xos obyekti va predmeti mavjud. Ekologik burchda tabiatni muhofaza qilish axloqiy normalarining ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj, majburiyat darajasiga ko‘tarilishi ifodalangan. Bunda shaxs, konkret vaziyatlardan kelib chiqib, ekologik talablarni bajarish zaruriyatini anglaydi va majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Ekologik mas’uliyatda esa, shaxs yoki ijtimoiy birliklarning tabiatni muhofaza qilish burchining “chegarasi” tushuniladi. Demak, ekologik mas’uliyat va burchning umumiyligi ham, farqi ham ularning “personifikatsiyalanish” darajasida namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ekologik burch o‘z mazmuniga ko‘ra, ekoetika kategoriyasi hisoblanadi. Ekologik mas’uliyatning konseptual asosi bo‘lsa, ekoetikaga nisbatan ijtimoiy ekologayaga yaqinroq.

Professor Nazar Hakimov ta’kidlaydiki, “ekologik tadqiqotlar, faqat ijtimoiy-tabiiy bilimlarga asoslanmasligi lozim. Tabiiy resurslardan foydalanish jarayoni, birinchi navbatda, ijtimoiy jarayondir. Yangi taraqqiyot bosqichida bu aksiomoni barcha vakillari tushunadi. Shuning uchun ham ekologik tadqiqotlar nafaqat ekotizimlar modeli, shu bilan birgalikda, inson faoliyatining tabiiy jarayonlariga aralashuvi va uning natijalariga baho berishi lozim1. Shunday ekan, ekologik mas’uliyat tabiyatga, tabiiy resurslar iste’moliga nisbatan adolatli bo‘lishga nisbatan ishlatiladi.

Ekologik mas’uliyatning subyektiv xarakteri shaxsning obyektiv ekologik borliqqa anglangan munosabati bilan belgilanadi. Ekologik mas’uliyat subyektning tabiatni muhofaza kilish extiyojlaridan kelib chiqib, unga ongli, ijodiy munosabatini axloqiy burch darajasiga ko‘tarish mexanizmidir. Umuminsoniy qadriyatlarining ekologik jihatlarini mas’uliyat darajasiga olib chiqish, har qanday progressiv g‘oyaning tarkibiy qismiga aylanmog‘i lozim.

Ayrim faylasuflar ijtimoiy manfaatlarning inson ongida aks etishini, ijtimoiy mas’uliyatning namoyon bo‘lishi sifatida amaliy faoliyatidan tashqarida tushuntirishga harakat qiladilar. Vaholanki, ekologik mas’uliyat insonning ijtimoiy ekologik-praktik faoliyatidan tashqarida konkret mazmunga va ahamiyatga ega emas. Chunki, ekologik mas’uliyatning rivojlanish darajalari: inson va tabiat munosabatlarining faqatgana nazariy ongda aks etishiga emas, balki amaliy faoliyatda “moddiylashish” xarakteriga mos keladi.

Ekologik mas’uliyat shaxsning ijtimoiy sifatini, inson hayotiy mavqeini belgilovchi hodisa bo‘lib, inson faoliyatini umuminsoniy ekologik qadriyatlar sari yo‘naltiradi. Ekologik mas’uliyatning umuman ijtimoiy-siyosiy mas’uliyatdan yana bir farqi shundaki, ijtimoiy-siyosiy mas’uliyatda faoliyatni tanlash imkoniyati mavjud. Ekologik mas’uliyatda esa, faoliyatni tanlash hayot-mamot

masalasi bo‘lib, yashash uchun kurash ehtiyojlaridan kelib chikddi. Chunki, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa yo‘nalishlardagi inqirozlar jamiyat a’zolariga bir xil ta’sir etmasligi mumkin, ya’ni uning ayrim kishilarni, ijtimoiy birlklarni chetlab o’tish imkoniyati mavjud. Ekologik inqiroz esa, jamiyat a’zolarining barchasiga birdek, bevosita ta’sir ko‘rsatganligadan, bu sohada faoliyatini tanlash erkinligi chegaralangan.

**Adabiyotlar ro’yxati.**

1. Мўйдинов, А. (2021). ЁШЛАРНИ ТУРЛИ ТАҲДИДЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШДА АЖДОДЛАР МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 132-137.
2. Asilbek, M. (2022). SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF EDUCATION OF AN ENLIGHTENED PERSON IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. Conferencea, 183-186.
3. Adham o’g’li, M. A. (2022). THE ROLE OF NATIONAL WITCHCRAFT HERITAGE IN THE SPIRITUAL RISE OF SOCIETY (SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 122-127.
4. Muydinov, A. (2022). ENLIGHTENMENT IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX-EARLY XX CENTURIES. ENLIGHTENMENT BY JADID SCHOOL. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 14-20.
5. Ruzmatovich, U. S. (2022). PROCESSES OF ORGANIZATION OF TECHNICAL, TACTICAL AND PHYSICAL PREPARATION IN NATIONAL WRESTLING TRAINING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(3), 65-68.
6. Ruzmatovich, U. S. (2022). CHANGES EXPECTED TO COME IN OUR LIFE MOVEMENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 485-489.
7. Shohbozjon, K., & Azizjon, M. (2022). PREPARING SCHOOL STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS BEFORE ENTRY TO HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(10), 100-108.